

## **BELBOG‘LI KURASH BO‘YICHA MUSOBAQA QOIDALARI**

Musobaqa – bu o‘quv-trinerovka jarayonining tarkibiy qismidir. Musobaqalarda ishtirok etish maqsadi – g‘alabaga erishish yoki imkoni boricha yuqori o‘rinlarni egallashdan iborat. Trinerovka jarayonida odatda, sportchining yuqori sport natijalariga erishishiga yordam beradigan hamma sifatlarni yuksak darajada namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish imkoniyati yo‘q. Musobaqalarda har bir sportchi o‘z raqibini yengishga intiladi va bu intilish sportchidan barcha imkoniyatlarni safarbar etishni talab qiladi. Bu nafaqat insonning funktsional imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradi, balki ularni shakllantirish vositasi bo‘lib xam xizmat qiladi.

Musobaqalar quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- sport jamoasida o‘quv-trinerovka ishi ahvolini aniqlash;
- kurashchilar tayyorgarligi darajasini aniqlash;
- har bir tayyorgarlik bosqichida o‘quv-trinerovka ishiga yakun yasash;
- kurash turlarini targ‘ib qilishga va shug‘ullanuvchilar sonini oshirishga yordam

berish.

Belbog‘li kurash musobaqalarini o‘tkazish xususiyatiga ko‘ra ular quyidagicha bo‘ladi:

- a) shaxsiy;
- b) jamoaviy;
- v) shaxsiy-jamoaviy;
- g) klassifikatsion.

Shaxsiy musobaqalarda – ishtirokchilarning har bir vazn toifasida egallagan o‘rinlari aniqlanadi. Jamoaviy musobaqalarda – jamoalar o‘rni aniqlanadi. Shaxsiy-jamoaviy musobaqalarda – bir vaqtning o‘zida ishtirokchilar va jamoalarning egallagan o‘rinlari aniqlanadi. Klassifikatsion musobaqalarda – ishtirokchilarning egallagan o‘rinlariga qarab sport malakalarini (sport razryadlari), reyting ochkolarini yig‘ish, Olimpiada O‘yinlariga ishtirokchilarni saralash uchun o‘tkazilishi mumkin. Ishtirokchilar tomonidan ko‘rsatilgan natijalar sport toifalariga muvofiq unvonlar xamda razryadlarni berishda yoki tasdiqlashda hisobga olinadi.

Musobaqalarni o‘tkazish uslubiga ko‘ra ular quyidagilarga bo‘linadi;

- a) Aylanma sistema;
- b) Aylanma-chetlatish sistemasi;
- c) Aralash sistemasi;

d) Olimpiya sistemasi.

Musobaqalarning bosqichlariga ko'ra tuman, viloyat, Respublika, Osiyo, Jahon va boshqalarga ajratiladi. Musobaqalarni o'tkazishda chempionat va birinchilik tushunchalari har xil tushuniladi. Aslida mazmun va mohiyati jihatidan bir hilga o'xshashligi sababli mutaxassislar o'rtasida baxslashuvni vujudga keltiradi. Mazkur tushunchalar xam o'zining aniq ta'riflanishini talab etadi.


Chempionat deganda – musobaqa bosqichiga ko'ra faqatgina kattalar o'rtasida tuman, viloyat, Respublika, Osiyo, Jahon chempionligini qo'lga kiritish uchun o'tkaziladigan musobaqalar tushuniladi. Bu chempionatlarda birinchi o'rinni egallagan kurashchi – “champion” degan (unvonga) sazovor bo'ladi.

Kurash turlarida musobaqa bosqichiga ko'ra chempionatlar yiliga bir marta o'tkazilishi ko'zda tutilgan.


Birinchilik deganda – musobaqa bosqichiga ko'ra kattalardan boshqa yoshdagilar (o'smirlar, yoshlar, faxriylar) o'rtasida birinchilikni qo'lga kiritish uchun o'tkaziladigan musobaqalar tushuniladi. Bu birinchiliklarda birinchi o'rinni egallagan kurashchi – “g'olib” degan (unvonga) ega bo'ladi.



**Belbogʻli kurash gilam oʻlchamlari**  
**Musobaqa oʻtqazish uchun maxsus gilamlar**



**Katta yoshli kurashchilar mashgʻulot gilami**  
**14x14, 12x12 oʻlcham**



**O'smirlar va yosh kurashchilar mashg'ulot gilami  
8x8, 10x10 o'lcham**



**BELBOG'LI KURASHDA HAKAMLAR KOLLEGIYASI TARKIBI VA  
HAKAMLARNING MAJBURIYATLARI**

Musobaqalarda xizmat ko'rsatish uchun hakamlar kollegiyasi Belbog'li kurash federatsiyasining hakamlar komissiyasi tomonidan tayinlanadi va musobaqa o'tkazayotgan sport tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi. Hakamlar kollegiyasi bosh hakam, bosh kotib, gilam rahbari, arbitr, yon hakam, sekundomerchi-hakam, axborotchi-hakam, musobaqa vrachidan tashkil topadi. Bosh hakam musobaqadagi hakamlar kollegiyasiga rahbarlik qiladi, musobaqa o'tkazayotgan tashkilot va tegishli kurash federatsiyasi oldida musobaqalarning o'tkazilishiga javobgar bo'ladi. Bosh hakam musobaqalar boshlanishidan oldin musobaqa o'tkaziladigan sport zal, kotibiyat uchun xonalar, jihozlar, asbob-anjomlar, zarur hujjatlarning yaroqliligini, ularning amaldagi qoidalarga muvofiqligini tekshirishi shart.

**Musobaqaga jalb etiladigan hakamlar  
va xodimlar**

№	Hakamlarning lavozimi	Gilamlar soni bo'yicha hakamlar va xizmat qiluvchi xodimlar soni	
		1-chi gilam	2- chi gilam
1	Bosh hakam	1	
2	Bosh kotib	1	
3	Bosh hakam o'rinbosari	2	
4	Gilam boshqaruvchi	1	1
5	Gilamdagi hakamlar	9	9
6	Vaqtini hisoblovchi hakam	1	1
7	Tablodagi hakam	1	1
8	E'lon qiluvchi hakam	1	1
<b>Jami:</b>		<b>30</b>	
1	Shifokor	1	1
2	Hamshira	1	1
<b>Jami:</b>		<b>4 kishi</b>	
<b>Jami umumiy soni :</b>		<b>34 kishi</b>	

**Bosh hakam vazifalari**

Bosh hakam musobaqalar arafasida hakamlar kengashini o'tkazadi va undan hakamlar o'rtasidagi majburiyatlarni taqsimlaydi, ishtirokchilar vaznlarini aniqlash uchun komissiya tayinlaydi, shuningdek gilamlar soniga qarab hakamlar brigadasini tuzadi. Bosh hakam musobaqalar davomida musobaqalarning qoidalari va musobaqa nizomiga muvofiq ularning o'tkazilishini boshqarib boradi.

Ayrim hollarda, ya'niy agar musobaqalar boshlanishidan oldin musobaqa o'tkazish joyi, jihozlar yoki asbob-anjomlar yaroqsiz holatda bo'lsa, bosh hakam musobaqalarni bekor qilishi, yoki noqulay meteorologik sharoitlarda, yoki musobaqalarni o'tkazishga to'sqinlik qiladigan boshqa qandaydir sabablarga ko'ra vaqtinchalik tanaffus berishi mumkin. Bosh hakam musobaqalarning oxirgi kunida hakamlar, jamoa vakillari, trenerlarning yakuniy majlisini o'tkazadi, natijalarni tasdiqlaydi va hamma bajarilgan ishlarga baho qo'yadi.

**Musobaqalarning bosh kotibi vazifalari**

Musobaqalarning bosh kotibi hakamlar kollegiyasi majlisi bayonnomasini yozib boradi, qur'a tashlash marosimini o'tkazadi va bellashuvlar tartibini belgilaydi, musobaqalar jadvalini tuzib chiqadi, hamma hakamlik hujjatlarini to'ldirib boradi, arizalar va norozilik bildirishnomalarini qabul qiladi, ular to'g'risida bosh hakamga xabar beradi, musobaqalarning o'tkazilishi to'g'risidagi texnik hisobotni tayyorlaydi.

## **Gilam hakam vazifalari**

Gilam rahbarining vazifalari ustun bo'lib, u arbitr va yon hakam ishini muvofiqlashtirib turadi. U bellashuvning borishini diqqat bilan kuzatib turishi va musobaqalar qoidalariga muvofiq holda hakamlar hamda sportchilar texnik harakatlarini baholab borishi shart. O'rtadagi hakam va yon hakam o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, u o'z qarorini chiqarishga haqlidir, lekin hech qachon u birinchi bo'lib o'z fikrini bildirmaydi, balki yon hakam va arbitr fikrini eshitadi. Agar o'rta va yon hakam sportchilarning harakat vaziyatlarini baholashda bir fikrda bo'lsalar, gilam rahbari hakamlar qaroriga aralashmaydi.

### **O'rtadagi hakam**

O'rtadagi hakam bellashuvga bevosita hakamlilik qilish paytida eng mas'uliyatli vazifani bajaradi. U bellashuvning borishini boshqaradi, kurashchilar harakatini baholaydi va bellashuvning musobaqalar qoidasiga muvofiq o'tishini kuzatib turadi.

Bellashuv boshlanishi to'g'risida ishora beradi, bellashuvni to'xtatadi va yakunlaydi, yon hakam yoki gilam rahbarining ma'qullashiga qarab, bellashuvni tik turishda yoki parterda davom ettirishni belgilaydi. Bellashuv paytida arbitr shunday joyda turishi kerakki, u turgan joydan kurashchilar harakatlari yoki amalga oshirayotgan usullarini aniq baholay olishi mumkin bo'lishi lozim.

Kurashchilarning butun gavda qismini ko'rib turishi, ularning harakatlari va tashlashlari yo'nalishini oldindan ko'zlay bilishi, ularni to'g'ri baholashi hamda har qanday vaqtda noto'g'ri va ta'qiqlangan harakatlarning oldini olishga tayyor turishi zarur.

Yon hakam kurashchilarning texnik harakatlarini baholaydi va ularni maxsus bayonnomaga yozib boradi.

O'rtadagi hakam hamma vaziyatlarda o'z fikrini bildirishi lozim, kurashchilar harakatlarini baholashda uning fikrlari arbitr fikrlari bilan mos kelishi, balki mos kelmasligi mumkin.






Bellashuv paytida, agar yon hakam kurashchilarning u yoki bu texnik harakatlarini sezsa, arbitr esa bu harakatlarni ko'rmagan yoki unga e'tibor bermagan bo'lsa, u bu haqda arbitrga xabar berishi lozim. U ko'k yoki yashil belbog'li kurashda ranglardagi maxsus ko'rsatkichni yuqoriga ko'tarib, o'rtadagi hakam o'z fikrini bildirmasa ham, shunday qilishi shart. Hozirgi texnik moslamalarning rivojlanishi bilan maxsus ko'rsatkichlar kompyuter yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Sekundomer-hakam kurashchilar, xakamlar va tomoshabinlarni vaqt to'g'risida ogohlantirib boradi. U sof g'alaba vaqtini qayd etadi, kurashchilarning kechikishlarini belgilaydi, bellashuv jarayonida ta'alluqli bo'lmagan vaqtning yo'qotilishini hisobga oladi. O'zining hamma harakatlarini gilam rahbari va arbitr bilan kelishib amalga oshiradi: arbitr xushtagi bilan sekundomerni yoqadi va o'chiradi. Agar bellashuv kurashchining jarohat olganligi yoki uning kiyimida kamchilik borligi sababli to'xtatilsa, sekundomerchi-hakam har bir minut tugashi bilan vaqtni e'lon qilib turadi. Bellashuv tugashi bilan sekundomerchi-hakam sekundomerni to'xtatadi va tovushli signal beradi. Buni u bir vaqtning o'zida bajarishi lozim.


### **Axborotchi-hakam**


Axborotchi-hakam musobaqalarni o'tkazish dasturi va tartibini e'lon qiladi, tomoshabinlarga kurashning borishi to'g'risida axborot beradi, har bir bellashuv natijalarini, navbatdagi juftlik tarkibini e'lon qiladi, musobaqa qoidalarini ayrim holatlarini tushuntirib beradi, musobaqa ishtirokchilarining sport faoliyatiga tavsif beradi. Musobaqalar borishi to'g'risidagi hamma ma'lumotlar musobaqa bosh hakami ruxsati bilan beriladi. Musobaqa vrachi hakamlar kollegiyasi tarkibiga kiradi, u ishtirokchilarning tibbiy ko'rikdan o'tishi va musobaqalarni o'tkazishning sanitariya-gigiyenik sharoitlari uchun mas'ul hisoblanadi. Vrach vazn o'lchanayotganda sportchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazadi va zarur hollarda ishtirokchilarga musobaqada qatnashish uchun ruxsat berish to'g'risida xulosa chiqaradi. U ishtirokchi jarohatlanganda yoki kasal bo'lib qolganda tibbiy yordam ko'rsatishi lozim. Bellashuv paytida tibbiy yordam gilam maydonchasi tashqarisida ko'rsatiladi.


## BELBOG‘LI KURASHDA XAKAMLAR TOMONIDAN ISHLATILADIGAN ASOSIY IBORA VA ISHORALAR


 <p>TANISHTIRISH</p>	<p><b>1.«TANISHTIRISH»</b> - iborasi. Kurashchilar kurash gilamiga chiqib kelganlaridan keyin o‘rtadagi hakam birinchi o‘ng, keyin chap qo‘llarini sportchi tomoniga qaratadi. Shu vaqtda e‘lon qiluvchi hakam esa sportchilarni tanishtiradi.</p>
 <p>TA‘ZIM</p>	<p><b>2. “TA‘ZIM”</b> - iborasi. O‘rtadagi hakam ikkala qo‘lini kaftlari bilan oldinga qaratgan holda yon tomonga ochib, keyin barmoqlarini yuqoriga qaratgan holda balanddan bukib, qo‘llarini ichkariga aylantirish ishorasini bajaradi. Bu vaqtda ikkala qo‘lining barmoqlari bir-biriga uchma-uch kelishi kerak.</p>
 <p>USHLA</p>	<p><b>3. «USHLA»</b> - iborasi. O‘rtadagi hakamning ikki kurashchini bir-birini belbog‘larini baravar holatda ushlash uchun beriladigan ishora. Bunda kurashchilar qo‘lini raqibining chap qo‘li ostidan, chap qo‘lini esa raqibining o‘ng qo‘li ustidan o‘tkazib belbog‘ni ushlaydi.</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Birinchi bo‘lib ko‘k yaktakli kurashchi belbog‘dan ushlaydi, ikkinchi bo‘lib yashil yaktakli kurashchi belbog‘dan ushlaydi.</li></ul>
 <p>KURASH</p>	<p><b>4. “Kurash”</b> - iborasi. Kurashchilar belbog‘larini ushlagandan so‘ng bellashuvni boshlash uchun ishlatadigan ishora. O‘rtadagi hakam o‘ng qo‘li kaftini yon tomonga qaratgan holda tirsakdan bir oz bukib ishora qiladi va baland ovoz bilan «<b>KURASH</b>» iborasini aytgandan so‘ng, kurashchilar belbog‘dan ushlab egilgan holatda qoidaga muvofiq usullar qo‘llash orqali bellashuvni boshlaydi.</p>
 <p>TO‘XTA</p>	<p><b>5. «TO‘XTA»</b> - iborasi. Bellashuv davom etayotgan vaqtda, bellashuvni to‘xtatish uchun ishlatiladigan ishora. Hakamning bu ishorasidan so‘ng sportchilar bellashuvni to‘xtatadilar.</p> <p>Quyidagi xollarda «<b>TO‘XTA</b>» ishorasi beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>-kurashchilar bellashuv vaqtida gilam chizig‘idan chetga chiqib ketsa;</li><li>-Bellashuv davomida xar bir usul bajarilgandan keyin beriladi.</li><li>- Kurashchilar bellashuv vaqtida gilam chizig‘iga kelib qolsa o‘rtadagi xakam «<b>TO‘XTA</b>» deyishi shart.</li></ul>




 <p style="text-align: center;"><b>HALOL</b></p>	<p><b>6. «HALOL»</b> - iborasi. Kurashchilardan biri sof g'alabaga erishgan vaqtda ishlatiladigan ishora. O'rtadagi hakam qo'lini yuqoriga ko'tarib barmoqlarini jipslashtirib, kaftini oldinga qaratgan holda, baland ovoz bilan «<b>HALOL</b>» iborasini aytadi.</p> <p>Halol bahosi quyidagi hollarda beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Kurashchilardan biri raqibini ko'tarib, oyog'ini gilamdan uzib usul ishlatib raqibini ikkala kuragi bilan yiqitsa.</li> <li>-xarakat vaqtida kurashchilar gilam chizig'iga kelib qolsa yoki yarim chiziq ustida usulni to'liq bajarsa «<b>HALOL</b>» bahosi beriladi.</li> <li>-Kurashchi ikki «<b>YONBOSH</b>» bahosini olsa.</li> <li>-Bir «<b>YONBOSH</b>» 3 «<b>CHALA</b>» bahosini olsa.</li> <li>-Oltita «<b>CHALA</b>» bahosi olsa.</li> <li>-Kurashchi raqibini ikki oyog'ini yerdan uzib usul bajarayotgan vaqtda raqib belbo'gdan atayin qo'l chiqarib yuborsa.</li> <li>-Kurashchilardan biri raqibini ko'krakdan oshirib tashlasa (progib usuli) va o'zining tana qismi gilamga tegmagan xolda raqib ikki kuragiga yiqilsa.</li> </ul>
---	---


 <p style="text-align: center;"><b>YONBOSH</b></p>	<p><b>7. «YONBOSH»</b> - iborasi. Hakam qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda (barmoqlar bir joyda jips) yon tomonga cho'zib ishora qiladi.</p> <p>«<b>YONBOSH</b>» bahosi quyidagi hollarda beriladi:</p> <p>Kurashchilardan biri raqibini ko'tarib, gilamdan uzib usul qo'llab bir kuragiga yiqitsa.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Kurashchilardan biri raqibiga nisbatan o'ng yoki chap tomonga yonbosh usulini qo'llasa (bedro) raqibi bir oyog'i yerdan uzilgan holda ikki kuragiga yiqilsa,</li> <li>- Kurashchilardan biri usul bajarib, xarakat davomida gilam chizig'idan tashqarida raqibini halol bahosiga yani ikki kuragiga yiqitsa.</li> </ul>
--	--







 <p style="text-align: center;"><b>Chala</b></p>	<p><b>8.«CHALA»</b> - iborasi. Hakam qo'lini kafti bilan oldinga qaratgan holda tirsagidan bukib bajariladigan ishora.</p> <p>«<b>CHALA</b>» bahosi quyidagi hollarda beriladi:</p> <p>Kurashchilardan biri usul qo'llab, usulni oxirigacha to'liq bajara olmasa;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Kurashchi raqibini orqasiga o'tkazib qo'ysa;</li> <li>-Kurashchi raqibini oyog'ini gilamdan uzmasdan ikki kuragini gilamga tekkizsa;</li> <li>-Kurashchi raqibini oyog'ini gilamdan uzib yoki raqibga nisbatan usul bajarish vaqtida o'zi bir yoki ikkala kuragi bilan gilamga yiqilsa.</li> <li>- Kurashchi raqibiga nisbatan ko'krakdan oshirib tashlash usulini (progib) qo'llasa, o'zining yelka orqa qismi va ikki kuragi gilamga tegib o'tsa.</li> </ul>
---	--

 <p style="text-align: center;"><b>JAZO</b></p>	<p><b>9. “JAZO”</b> - iborasi. Kurashchilarni ogoxlantirish uchun beriladigan ishora.</p> <p>“<b>JAZO</b>” ishorasi quyidagi hollarda beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Kurashchilar hakamning “<b>USHLA</b>” buyrug’idan keyin 20 soniya vaqt ichida belbog’larni ushlamasa;</li> <li>-Kurashchi ximoyalani (blok) maqsadida qo’lini raqibining biqini yoki qorin qismiga tirab yursa;</li> <li>-Kurashchi raqibining kiyimini belbog’ga qo’shib ushlasa;</li> <li>-Kurashchi raqibining oyog’i orqasidan, yonidan chalsa;</li> <li>-Raqibning oyog’i yoniga oyoq qo’yib qayirsa;</li> <li>-Kurashchi gilamga chaqirilgandan keyin bir daqiqa ichida chiqmasa;</li> <li>-Qadam(shag) qo’yib raqibni bossa;</li> <li>-Kurashchining murabbiyi bellashuv vaqtida hakamlar yoki raqib kurashchiga nisbatan bexurmatlik va qo’pollik qilib haqorat qilsa;</li> <li>-Kurashchi kurash formasini o’rniga boshqa sport turining formasini kiyib chiqsa yoki kir va yirtiq formani kiyib chiqsa. (Belbog’li kurash qoidasiga zid forma).</li> <li>-Kurashchi raqibini ikki tizzasini gilamga tekkazsa;</li> <li>-Kurashchi raqibini oyoq yon qismiga oyoq qo’yib, raqib oyog’ini yerdan uzmasdan turib o’zini orqa yoki yon tomonga tashlasa.</li> </ul>
--	---

<p style="text-align: center;"><b>G’IRROM</b></p>	<p><b>10. “G’IRROM”</b> – iborasi quyidagi hollarda beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Agar kurashchilardan biri ikki daqiqa vaqt ichida gilamga chiqmasa.</li> <li>-Kurashchilardan biri jarohati sababli shifokor xulosasiga ko’ra gilamga chiqishga ruxsat berilmasa.</li> <li>-Raqibiga nisbatan qastdan jarohat yetkazsa.</li> <li>-Hakamlar va tomoshabinlar shaniga noma’qul so’zlarni ishlatsa, baqirsa.</li> <li>-Kurashchi bellashuv davrida uch marotaba “<b>JAZO</b>” bahosini olsa unga mag’lubiyat ya’ni g’irrom e’lon qilinadi;</li> <li>-Kurashchilar belgilangan vaqtda kerakli bahoni qo’lga kiritmasa, qisqa ushlash vaqtida ham natija ko’rsata olmasa, atayin vaqtning cho’zishiga sabab bo’lsa, u xolda ikkala kurashchiga ham g’irrom e’lon qilinadi.</li> </ul>
---	--

 <p style="text-align: center;"><b>BEKOR</b></p>	<p><b>11. «BEKOR»</b> - iborasi. Bellashuv to’xtatilgandan keyin xarakatlar yoki bajarilgan usul baholashga noloyiq deb topilganda ishlatiladigan ishora. Hakam qo’lini oldi tomonga qaratgan holda kaftining barmoqlarini jipslashtirib ikki-uch bor chapga va o’nga harakatlantirib ishora qiladi. Quyidagi xollarda bekor bahosi beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Kurashchilar usulni bajargandan so’ng ikkala kurashchi teng xolda yelka qismlari bilan yiqilsa;</li> <li>-Uchchala xakam uch xil ishora ko’rsatsa;</li> <li>-Kurashchilardan biri xarakatni gilam chizig’i ustida boshlab, gilamdan tashqarida usulni yakunlasa;</li> <li>-gilam chizig’i ustida boshlangan xarakat, gilam tashqarisida yakunlansa.</li> </ul>
---	--

 <p style="text-align: center;"><b>VAQT</b></p>	<p><b>12. «VAQT»</b> - iborasi. Vaqtni kuzatuvchi xakam bellashuv vaqti yakunlanganligini elon qilsa yoki “bong” chalinganda ko’rsatiladigan ishora. Bu ishora bilan kurashchilar bellashuvi yakunlanadi.</p>
--	---

<p><b>Izox:</b></p>	<p><b>Eslatma:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qo'lini biqiniga tirab yoki yetqazib ushlab qat'iyon ta'qiqlanadi.</li> <li>- ballar teng kelib qolsa (2 tadan chala yoki bittadan yonbosh v.x.k ) u xolatda oxirgi balni qo'lga kiritgan sportchi g'alabaga erishadi. Belbog'li kurashda bellashu vaqti tugasa kurashchilar ball olmagan bo'lsa yoki har ikkala kurashchida jazo баҳоси bo'lsa u holatda kurashchilar belbog'larini qisqa ushlab bellashuvni davom ettiradilar va birinchi texnik usul qo'llanguncha kurashadilar.</li> <li>-Kurashchilar belbog'i ko'krak qafasidan bir musht oralig'ida bog'lanadi.</li> <li>-Bellashuv davomida bajarilgan usullarni baholashda kurashchi tanasining gilamga birinchi tekkan qismi hisobga olinadi.</li> <li>- kurashchilardan biriga jazo ogoxlantirilishi berilsa raqib kurashchiga chala baxosi miqdorida ball beriladi.</li> </ul>
<p><b>CHELENCH</b></p>	<div style="display: flex; align-items: center;">  <div style="width: 100%;"> <p>Kurashchining murabbiy hakamning bergan bahosidan norozi bo'lsa chelench yani ushbu suratda ko'rsatilgan kubiklardan birini tashlaydi. Bosh hakam bu vaziyatda vidyo yozuvni ko'radi va chelench asosli bo'lsa ball qaytariladi chelench asosiz bo'lsa raqibga chala baxosi miqdorida ball beriladi va chelinch jarima sifatida hakamlar stolida qoladi.</p> </div> </div> <div style="display: flex; align-items: center; margin-top: 10px;">  </div>
<p><b>HAKAMLIK QO'L BOG'CHI</b></p>	<div style="display: flex; align-items: center;">  <div style="width: 100%;"> <p>Belbog'li kurashda hakamlar qo'llariga ko'k va yashil bog'ich bilan o'rtaga chiqadilar. Kurashchilarni harakatlarini to'xtatib bog'ich bog'langan qo'lni ko'tarib harakatni baholaydi.</p> </div> </div> <div style="display: flex; align-items: center; margin-top: 10px;">  </div>
<p><b>OGOHLANTIRUCHI KARTOCHKALAR</b></p>	<div style="display: flex; align-items: center;">  <div style="width: 100%;"> <p>Beriladigan sariq kartochka sportchi yoki murabbiy tomonidan hakamlarga qo'pol ravishda hatti harakatlar qilinganda beriladi va musobaqadan chetlatiladi.</p> </div> </div> <div style="display: flex; align-items: center; margin-top: 10px;">  <div style="width: 100%;"> <p>Beriladigan qizil kartochka sportchi yoki murabbiy tomonidan hakamlarga o'ta qo'pol ravishda hatti harakatlar qilinganida va jiddiy sabablarga olib keluchi holatlarda beriladi hamda 3-yilgacha musobaqalardan chetlatiladi.</p> </div> </div>

<b>MUSOBAQA HAKAMLARINING KIYIMLARI.</b>		Musobaqa hakamlarining kiyimlari mavsumga qarab, viloyat va Respublika doirasida qora kostyum shim, oq ko'ylak, qora paypoq va sport polosidan iborat bo'ladi. UWW halqaro musobaqalari Osiyo, Jaxon va Gran-pri musobaqalarida qora polo yoqali kiyim, qora shim, qora paypoq oq padojli qora poyabzal.
--	--	---

**HALOL = 6**  
**YONBOSH = 3**  
**CHALA = 1**

**G'IRROM = 6**  
**JAZO = 1**

Ko'k	Yashil	Baho	Texnik ustunlik
H	-	6-0	
YO.YO	-	6-0	
G'	-	0-6	
J.J.J.	-	0-6	
CH	-	1-0	
J	-	0-1	
CH.J	-	1-1	KO'K
YO	-	3-0	
YO.CH.CH.CH.	-	6-0	
YO.CH	-	4-0	
YO+	YO	3-3	KO'K
YO.CH.CH.	J	6-0	
YO.CH.	JJ	6-0	
YO	CH.CH.CH	3-3	KO'K
CH	J	2-0	
YO.CH.J	-	4-1	
YO.J.J	CH.CH.CH.CH	3-6	YASHIL
YO.CH	CH.CH.CH	4-3	
CH	CH+	1-1	YASHIL
J	J	1-1	QISQA USHLASHUV